


Qoraqalpog`iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-sentyabrida 1658 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo`jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o`tgan yilning shu davriga nisbatan 19,7 % ga ko`p demakdir.

Eng ko`p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat tarmog`ida (22,1 %), savdo sohasida (20,7 %), qurilish tarmog`ida (18,3 %), qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida (17,5%), yashash va ovqatlanishda (6,7 %), tashish va saqlashda (3,9 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi



2018 yilning yanvar–sentyabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan–sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1142,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 17,7 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabrga nisbatan o`sish sur`ati 108,2 %ni tashkil qildi;



– 950,5 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 26,0 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 131,3%ni tashkil qildi;



– 1120,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiylajmining 84,5 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 104,8 % ni tashkil qildi;



– 1846,8 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 57,5 %), 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 105,2 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiylajmining 83,5 % yoki 2510,8 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 2,8 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 31,4 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 8,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 2,0 mln. AQSh dollariga yoki 108,2 % ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,6 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 90,3 %i) ko`payishi ta`minlandi;


– yo`lovchi aylanmasining esa 3,0 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 97,1 %) ko`payishi ta`minlandi;

Tumanlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (238,3 mlrd.so'm), Xujayli (113,2 mlrd.so'm) va Qungirot (107,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan % da)



2018 yil yanvar-sentyabrida tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur`ati




2018 yil yanvar-sentyabrida tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur`ati



Tumanlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (630,3 mlrd.so'm), Beruniy (273,1 mlrd.so'm) va Xujayli (247,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-sentyabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Nukus shahri (959,4 mlrd.so'm), Turkul tumani (115,3 mlrd.so'm) va Beruniy (112,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning tumanlar bo'yicha ulushi (% da)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Qoraqalpog`iston Respublikasi tumanlar:			
Amudaryo	42,9	95,5	95,9

Beruniy	58,5	95,7	96,7
Qorauzyak	100,0	91,2	97,8
Kegeyli	40,6	82,7	96,7
Qung'irot	72,1	22,6	20,7
Qonlikul	29,4	97,9	97,5
Muynoq	7,6	94,9	96,3
Nukus tumani	99,5	98,9	97,2
Taxiatosh	4,0	47,2	84,4
Taxtakupir	100,0	100,0	97,0
Turtkul	74,4	97,9	92,5
Xujayli	54,1	85,5	73,0
Chimboy	93,0	99,9	92,5
Shumanay	100,0	56,7	97,5
Ellikqala	65,7	92,4	95,6
shahar:			
Nukus sh.	5,2	98,0	52,0

Tumanlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Shumanay (100,0%), Qorauzyak (100,0%), Taxtakupir (100,0%), Nukus tumani (99,5) va Chimboy (93,0%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qorauzyak (97,8 %), Shumanay (97,5 %), Nukus tumani (97,2 %), Taxtakupir (97,0 %), Kegeyli va Beruniy (96,7 %), Amudaryo (95,9 %), tumanlari tashkil etadi.


Qurilishda Taxtakupir (100,0%), va Chimboy (99,9 %), Qonlikul (97,9%), Nukus shahri (98,0 %) va Amudaryo (95,5 %) Beruniy (95,7%), Muynoq (94,9%), Xujayli (85,5 %), tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 48,3 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentyabrida 50,8 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil III- chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvalar o'tkazildi. Unda 41 ta respondent ishtirok etdi.


Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, respondentlarning 48,8 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 51,2 % deb hisoblashini, mos ravishda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 50,0 % va 50,0 % qonigarli 50,0%, savdoda – 66,7 % va 33,3%, xizmatlar sohasida – 33,3 % va 66,7 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III–chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 62,5 % sanoat korxonalari, 77,8 % – savdo, 44,4 % – xizmatlar, 75,0 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 57,1 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligida iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.